



“TISU IJTIMOIIY FANLARI VA INNOVATSION PEDAGOGIKA”

ILMIY JURNALI

“TISU Ijtimoiy fanlari va innovatsion pedagogika” jurnali – Respublikadagi ijtimoiy fanlar, pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, falsafa va tarix yo’nalishlarida izlanish olib borayotgan olimlar, doktorantlar va tadqiqotchilar, Oliy ta’lim muassasalari professor-o’qituvchilari, ilmiy izlanuvchilar hamda magistrantlar, maktab va texnikumlarda faoliyat yuritayotgan o’qituvchilar, metodistlar va amaliyotchi pedagoglar, ta’lim sohasida innovatsion yondashuvlarni joriy etishga qiziquvchi mutaxassislarning ilmiy salohiyatini namoyon etuvchi maqolalari e’lon qilinadi.



Muassis:
TERMIZ IQTISODIYOT VA
SERVIS UNIVERSITETI

**TISU TIBBIYOT INNOVATSIYASI ILMIY
JURNALI**

Bosh muharrir:
Sattarov Abdusamat
Umurqulovich

Bosh muharrir o'rinbosari:
Qobulov Eshbolta Atamuratovich

Mas'ul kotib:
Allamuratov Shuxrat Ashurovich

Dizayner:
Meyliqulov Shahboz
Xolmamatovich

**Jurnal har chorakda bir marotaba
chop etiladi**

Jurnal O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligining
2023-yil 1-martdagi
№ 066379- raqamli guvohnomasi
bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal "PRINTWELL" MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahri
Muqimiy ko'chasi, 170/14

Bosishga ruxsat etildi:
27.11. 2025.

Qog'oz bichimi: 60x84 1/8
"Times New Roman" garnitiruasi.
Ofset bosma.
Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i: 11.
Adadi 10 nusxa.
Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma № 1.

Jurnalning elektron shakli bilan
<https://scientific.tues.uz>
web saytida tanishish mumkin.

Tahririyat manzili:
Surxondaryo viloyati,
Termiz sh., "Yulduz" MFY,
"Ibn Sino" ko'chasi.

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

Bosh muharrir, Qabulov Eshbolta Atamuratovich –
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Tarix kafedrası professori, tarix fanlari doktori,
Termiz, O'zbekiston. eshbolta_qabulov@tues.uz

Bosh muharrir o'rinbosari – Salohiddinova Navro'za -
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Pedagogika kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi,
Termiz, O'zbekiston. navruza_salohiddinova@tues.uz

Tarix fanlari muharriri Tursunov Nurillo Narzullayevich -
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Tarix kafedrası professori v.b, tarix fanlari doktori,
Termiz, O'zbekiston. nurillo_tursunov@tues.uz

Ijtimoiy fanlar muharriri, Tursunov Muxiddin Boltayevich –
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti, sotsiologiya fanlari nomzodi,
Termiz, O'zbekiston. muxiddin_tursunov@tues.uz

Jismoniy madaniyat fanlari muharriri – Begimqulov Oltiboy
Jo'rayevich - Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Jismoniy madaniyat kafedrası professori,
Termiz, O'zbekiston. oltiboy_begimqulov@tues.uz

Pedagogika fanlari muharriri – Narboshova Maqsuda Achilovna -
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Pedagogika kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi,
Termiz, O'zbekiston. maqsuda_narboshova@tues.uz

Rus tili va adabiyoti muharriri – Sattarova Elena Anatolevna –
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Rus tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, filologiya fanlari
falsafa doktori, Termiz, O'zbekiston. elena_sattarova@tues.uz

Ingliz filologiyasi muharriri – Urolova Oysuluv Poyon qizi -
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Ingliz tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, filologiya fanlari
falsafa doktori, Termiz, O'zbekiston. oysuluv_urolova@tues.uz

MUNDARIJA

G. E. TURAYEVA

Bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy tarbiyalashda o'quv jarayonini innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish.....3

G.T. JUMAYEVA

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda pedagogik yondashuv asoslari.....6

O.Ch.XOLOV

Yosh avlodni tarbiyalashda aksiologiyaning ahamiyati.....10

N.M. SALOXITDINOVA

Zamonaviy ta'lim sharoitida xorijiy tajriba va steam ta'limi.....14

B.X. ABRAYEV, I.N. XAYRULLAYEV

Matritsalar va odam anatomiyasida fanlararo integratsiya va funksional o'xshashliklar haqida tizimli yondashuv.....17

M.Y.MADIEVA

Translation strategies and linguistic adaptation of English brand names in Russian and Uzbek contexts.....22

S.Q. ESHBOYEVA

4K yondashuv samarali ta'lim kafolati.....26

N.N. SHODIYEVA

Erta nikoh qurishning oila mustahkamligiga ta'siri.....30

K.Sh.OLTIBOYEVA

Shaxs intellektual rivojlanishi - pedagogik muammo sifatida.....34

U.A. TASHBAYEVA

Talabalarda emotsional intellektni rivojlantirish orqali kommunikativ tayyorgarligini takomillashtirish texnologiyalari.....37

M.Y.MADIEVA

Brend nomlarining medialingvistik tahlili: o'zbek tilidagi milliy leksik birliklar asosida....41

R.D. NORQOBILOVA

Pedagogik konfliktlarda gender omilining roli.....47

G'.A. MAMARAJABOV

Surxon vohasi amaliy san'atning rivojlanishida hunarmandlar faoliyati.....50

F.A. ABDURAZZOQOV

Mamlakatda maktabgacha yoshdagi bolalarning kuchli zilzila bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakatlanishga tayyorlashning ta'sirchan va samarali mexanizmlari.....54

A.Ch. QOSIMOV

Surxon vohasida an'anaviy qo'ychilik va ularning vohaga xos xususiyatlari.....58

M.X. FAYZULLAYEVA

Tarixiy yozma manbalar va ilmiy adabiyotlar qimmatli manba sifatida.....62

S.A. JABBOROVA

Tarixiy yozma manbalar va ilmiy adabiyotlar qimmatli manba sifatida.....67

F. YORMATOV

Mamlakatimizda nuroniylarni ijtimoiy himoyalashning ustivor yo'nalishlari70

R. R. KHAMRAEVA

Linguistic Creativity in Science Fiction Translation: from Asimov's Robots to Modern AI Narratives.....76

I.H. JUMAYEV

"Qutadg'u bilig" dostonida insoniy nuqsonlarning badiiy ifodasi.....80

N.A. UMAROVA

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentli shakillantirish.....84

I.B. QARSHIYEVA

Talabalarga jadidchilar asarlaridagi ma'rifiy qadriyatlarini o'rgatishning pedagogik shart-sharoitlari.....89





Termiz iqtisodiyot va servis universiteti pedagogika va texnologik ta'lim kafedrasida dotsenti
Jumayeva Gulnora Tursunpulatovna
E-mail: gulnorajumayeva117@gmail.com

KASBIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK YONDASHUV ASOSLARI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada pedagogning kasbiy kompetentligi va uni rivojlantirish yo'llari, kasbiy kompetensiyaning shakllanish bosqichlari, kompetensiya tushunchalarining o'zaro uzviy bog'liqligi va farqlari haqida keltirilgan. Ta'lim va tarbiya jarayonida yoshlar ajdodlar tomonidan to'plangan bilim, odob, urf-odat, madaniyat va mehnat ko'nikmalarini o'zlashtirishi, hayotiy tajriba asosida jamiyatda o'zining munosib o'rnini egallashi, salohiyati va dunyoqarashining shakllanishida pedagog shaxsi, uning kasbiy mahorati muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: qobiliyat, salohiyat, "o'qituvchi-o'quvchi" o'zaro aloqasi, o'z-o'zini rivojlantirish, rahbarlik, faoliyat, kasbiy kompetentlik, kompetensiya, psixologik-pedagogik, ta'lim va tarbiya.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается профессиональная компетентность учителя и пути её развития, этапы формирования профессиональной компетентности, взаимозависимость и различия понятий компетентности. В процессе образования и воспитания молодые люди усваивают накопленные предками знания, манеры, обычаи, культуру и трудовые навыки, занимают достойное место в обществе, опираясь на жизненный опыт, а личность учителя и его профессиональное мастерство играют важную роль в формировании их потенциала и мировоззрения.

Ключевые слова: способности, потенциал, взаимодействие «учитель-ученик», саморазвитие, лидерство, активность, профессиональная компетентность, компетентность, психолого-педагогическое, образование и воспитание.

ABSTRACT

This article examines teachers' professional competence and its development, the stages of professional competence development, and the interdependence and differences between competence concepts. During their education and upbringing, young people absorb the knowledge, manners, customs, culture, and work skills accumulated by their ancestors. They take a worthy place in society, relying on life experience, and the teacher's personality and professional skills play an important role in shaping their potential and worldview.

Key words: abilities, potential, teacher-student interaction, self-development, leadership, activity, professional competence, competence, psychological and pedagogical, education and upbringing.

KIRISH

Zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi – jamiyat va davlat uchun har tomonlama rivojlangan, jamiyatga, mehnat faoliyatiga ijtimoiy moslashuvchan, o'z ustida ishlay oladigan shaxsni tayyorlashdan iborat. Demak, har tomonlama rivojlangan shaxs tarbiyasida pedagoglarning kompetentlik darajasi muhim ahamiyatga ega.

Pedagogika fanida psixologik-pedagogik kompetentlik tushunchasi pedagogning ta'lim-tarbiya jarayonida eng yuqori darajada natijaga erishishi, yuqori kasbiy salohiyat, shuningdek, muloqotchanlik va ijobiy fazilatlarga ega bo'lish

degan xulosaga kelinadi. "Kompetentlik" so'zining ma'nosi xabardorlik, obro', o'z sohasi bo'yicha keng qamrovli tushuncha va tajribaga ega bo'lish bilan belgilanadi. Kompetensiya - shaxsiy sifat bo'lib, turli xil vaziyatda pedagogik faoliyat va ijtimoiy hayotda ifodalanadigan qobiliyat, bilim, ko'nikma va malaka hisoblanadi.

Ta'lim va tarbiya jarayoni o'sib kelayotgan yosh avlodni jamiyat talablarini o'zida aks etiruvchi ijtimoiy buyurtma asosida hayotga tayyorlashdan iborat. Ta'lim va tarbiya jarayonida yoshlar ajdodlar tomonidan to'plangan bilim, odob, urf-odat, madaniyat va mehnat ko'nikmalarini

o'zlashtirishi, hayotiy tajriba asosida jamiyatda o'zining munosib o'rnini egallashi, salohiyati va dunyoqarashining shakllanishida pedagog shaxsi, uning kasbiy mahorati muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, yoshlarda davr talabidan kelib chiquvchi yangi masala va muammolarni yechish uchun zarur bo'ladigan sifatlarni shakllantirish pedagogik faoliyat sohasining ustuvor vazifasi hisoblanadi. Buning uchun avvalo, pedagogning o'zida yangicha bilim berish, o'zgarib boruvchi mehnat va hayot sharoitlariga muvofiq ijodiy faoliyat bilan shug'ullana olish ko'nikmalari tarkib topgan bo'lishi lozim.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev ushbu fikrlarni ta'kidlab o'tadi. "Ta'lim-tarbiya sohasida zamonaviy va oqilona tizim yaratish, o'qitish metodlari, ta'lim standartlari, darslik va o'quv qo'llanmalarini yangilash zarur" [1]

Asosiy qism. Bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o'rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo'lish, har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo'lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. Xo'sh, kompetentlik nima? Kasbiy kompetentlik negizida qanday sifatlar aks etadi? Pedagog o'zida qanday kompetentlik sifatlarini yoritish zarur. Ayni o'rinda shu va shunga yondosh g'oyalar yuzasidan so'z yuritiladi.

Kompetensiya inglizcha "competence" tushunchasi lug'aviy jihatdan bevosita "qobiliyat" ma'nosini ifodalaydi. Mazmunan esa, "faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish"ni yoritishga xizmat qiladi.

"Kompetentlik" tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli, kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini

nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi. Kompetentlik va kompetensiya inson umri davomida, faoliyatida u bilan hamohang yashaydigan tushunchalardan biri desak, mubolag'a bo'lmaydi. Kompetentlik - bilimdonlik, kasbga moslik, malakalilik, tajribalilik, rahbarlikni faoliyatiga sindirib borishdir. Kompetensiya esa bu - qobiliyat har qanday faoliyatda o'z qobiliyat va iqtidorlarini ko'rsata bilishdir.

Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi:

- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma'lumotlardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo'la olishda;

Pedagogning kompetentligi – bilimdonlik, kasbga moslik, malakalilik, tajribalilik, mas'uliyatlilikni rahbarlik faoliyatiga singdirib borish. O'z sohasini, ishining ustasi bo'lish, sohasining sirlarini har tomonlama chuqur bilish demakdir.

Pedagogik kompetensiyaning shakllanish bosqichlari:

1. Qobiliyatni aniqlash
2. Tarbiyalash va shakllantirish
3. Chiniqtirish (kichik hajmdagi topshiriqlar berish)
4. Ishonch (mustaqil rahbarlik lavozimiga tayinlanish)
5. Rahbarlik cho'qqisi.

Kompetensiya tushunchasi haqida ko'p fikrlarini bildirganlar ichida o'zbek pedagog olimlari ham bor. Bularda B. Xodjaye, A. Musurmanova, N. Saidahmedov, A. Muslimov, E. Yuzlikaeva, R.D. Risqulova, A.E. Kenjaboyevlar ilmiy tadqiqot ishlarida va amaliy metodik maqolalarida ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish uzluksiz ta'lim muassasi o'qituvchilarining kompetensiyasi va unga qo'yiladigan didaktik talablar ushbu atamasining mohiyatini, uning tarkibiy qismlari haqida o'z fikrlarini bayon qilgan.

Kompetensiya muammosi va uning turlari nafaqat bizda balki MDH mamlakatlari olimlarining ham tadqiqot mavzusi bo'lib



kelmoqda. Kompetensiyaning turlarini tasniflashiga doir xilma-xil yondashuvlar mavjud. Jumladan, N.A. Muslimov va M.B. O'rozovalar kasbiy ta'lim nuqtai nazaridan kompetensiyalarni 5 turga ajratadi:

Kasbiy kompetentlik deganda mutaxassis dunyoqarashining kengligi, uning ishbilarmonlik mahorati va shaxsiy sifatlari, bilim, ko'nikma hamda malakalariga suyanan holda to'g'ri qarorlar qabul qila olishi tushuniladi. Oliy ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasi takomillashuvida nazariy tayyorgarliklar bilan birga amaliy tayyorgarliklar uzviyligi ta'minlanishi kerak.

Bolajak o'qituvchilarining nazariy va amaliy tayyorgarligi tashkiliy jihatdan qanday shakl va melodlarda bo'lmasin, quyidagi didaktik tamoyillarga asoslanadi:

1. Nazariy va amaliy bilimlar uzviyligi;
2. Kasbiy bilim va ko'nikmalarni tizimli tarzda takomillashtirib borishi;
3. Bo'lajak kasbiy-pedagogik faoliyat bilan funksional bog'liqlik;
4. Talabalar amaliy faoliyatining ko'rgazmaliligi;
5. O'z kasbiy faoliyati yuzasidan bosqichma-bosqich mustaqil faoliyat yurgazishga intilish va mas'uliyat hissini shakllanishi;
6. Bo'lajak o'qituvchilarda nazariy va amaliy bilimlar hamda ko'nikmalarini takomillashishi natijasida kompetensiyani shakllanishi va rivojlanishi.

Bu tamoyillarining barchasi kelajakda o'qituvchi kasbiy-pedagogik kompetensiyasining nazariy-ilmiiy, amaliy funksional, pedagogik-psixologik takomillashuvi omillaridan hisoblanadi. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisining kasbiy kompetentligini shakllantirish orqali ta'lim va tarbiya jarayonini zamon talabiga ko'tarishga xizmat qiladi.

Kasbiy kompetensiyaning shakllanish bosqichlari quyidagicha:

- 1. O'z-o'zini tahlil qilish va zarur narsalarni anglash;
- 2. O'z-o'zini rivojlantirishni rejalashtirish, maqsad-vazifa belgilash;
- 3. O'z-o'zini namoyish etish va kamchiliklarni tuzatish;

Ta'lim sifatini o'zgartirishda o'qituvchi kompetentligining roli:

- Tashkilotchi ijtimoiy pedagog talabalarni mustaqil hayotga tayyorlash;
- Fasilitator (guruh yetakchisi) guruhda

ijobiy-psixologik muhit yaratadi;

- Metodist ta'lim jarayonida talabalarning muammoni yechimlariga yordam beradi va qo'llab-quvvatlaydi;

- Tadqiqotchi-novator yangilik yaratuvchi, muntazam ravishda o'z ustida ishlaydi, yangi g'oyalar yaratadi.

- O'zaro ta'sir ko'rsatuvchi jamoa bo'lib ishlay oladi va ishlashga o'rgatadi;

- Maslahatchi shaxsiy namunasini o'rgatadi;

Har qanday mutaxassisning vakolati bu o'zlarining kasbiy faoliyati davomida aks ettirilgan ijtimoiy ahamiyatga ega va shaxsan muhim vakolatlar tizimidir.

Kasbiy kompetentsiya mutaxassisning kasbiy faoliyatni amalga oshirishga nazariy va amaliy tayyorgarligi birligi bilan tavsiflanadi. Vakolat - bu mansabdor shaxsning shaxsiy qobiliyatlari, uning malakasi (bilim va tajriba), unga ma'lum bir bilim va ko'nikmalar mavjudligi sababli muayyan qarorlarni ishlab chiqishda ishtirok etish yoki muammolarni o'zi hal qilish imkonini beradi.

O'z-o'zini baholash darajasi shaxsning o'z-o'zidan qoniqishi yoki qoniqmasligini belgilab beradi. Bunda o'z-o'zini baholash ko'rsatkichlari shaxs imkoniyatlariga mos kelishi zarur.

O'z-o'zini rivojlantirish - shaxsning o'zida kasbiy tajriba, malaka va mahoratni takomillashtirish yo'lida aniq maqsad va puxta o'ylangan vazifalar asosida mustaqil ravishda amaliy harakatlarni tashkil etishi. Bir qator tadqiqotlarda mutaxassis, shu jumladan, pedagogning o'z-o'zini rivojlantirishida "Individual rivojlanish dasturi" qo'l kelishi aytiladi.

Individual rivojlanish dasturi (IRD) - har bir shaxs yoki mutaxassisning o'zida ma'lum sifat, BKM, kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish ehtiyojlari asosida ishlab chiqilgan shaxsiy-amaliy xarakterdagi dastur.

Ushbu dasturda kasbiy faoliyatni tashkil etish uchun zarur bo'lgan BKM hamda kasbiy kompetentlik sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish muddatlari belgilanadi.

Har qanday mutaxassis kabi pedagog ham o'zi uchun shaxsiy-amaliy xarakterga ega "Individual rivojlanish dasturi"ni ishlab chiqa olishi, u asosida pedagogik faoliyatni yo'lga qo'yishi zarur.

Pedagogning individual rivojlanish dasturi - mutaxassis sifatida pedagogning individual ravishda o'zida u yoki bu kasbiy-pedagogik sifat,

bilim, ko'nikma, malakalar, kasbiy kompetentlik sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish ehtiyojlariga tayangan holda ishlab chiqqan shaxsiy-amaliy xarakterdagi dasturi hisoblanadi. [2]

Xulosa. Muvaffaqiyatli ishlash uchun har bir o'qituvchi yuqori pedagogik mahorat va keng dunyoqarashga ega bo'lishi kerak. Shundagina oz mehnat sarf qilib, katta natijaga erishadi, ijodkorlik uning hamisha hamkori bo'ladi. Pedagogik ishga qobiliyatli, iste'dodli kishidagina pedagogik mahorat egasi bo'lishi mumkin. Pedagogik faoliyatning samarali bo'lishi uchun o'qituvchi o'z fanini chuqur bilishi, unga turdosh fanlar haqida ham tushunchaga ega bo'lishi, o'quv materialini o'quvchilarga tushunarli qilib bayon eta olishi, o'quvchilarda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg'otishi, o'quvchilarning bilim, kamolot darajasi va ruhiyatini hisobga olishi, ularning nimani bilishlari va hali nimani bilmasliklarini tasavvur eta olishi lozim. Qobiliyatli, tajribali o'qituvchi o'zini o'quvchining o'rniga qo'ya oladi, u kattalarga aniq va tushunarli bo'lgan narsalarni o'quvchilarga tushunilishi qiyin va mavhum bir narsa bo'lishi ham mumkinligiga asoslanib ish tutadi. Shuning uchun u bayon etishning xarakter va shaklini alohida o'ylab chiqadi hamda rejalashtiradi.

O'qituvchi o'quvchining, ichki dunyosiga kira olishi, o'quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna bilishi bilan bog'liq bo'lgan psixologik kuzatuvlar olib borishi kerak. Bunday o'qituvchi o'quvchining ruhiyatiga ko'z ilg'amas o'zgarishlarni ham tez fahmlab oladi.

O'qituvchining yuqori kasbiy mahoratni egallashi bevosita uzluksiz ta'lim tizimi orqali amalga oshiriladi. Uzluksiz ta'lim tizimida asosiy o'rin egallagan malaka oshirish o'quvchi faoliyatini tahlil qilish va unga istiqbol yo'nalishlar berishga imkon beradi.

Hozirgi davr o'qituvchidan o'qitishning ilg'or pedagogik texnologiya talablarini to'g'ri tushunish, tashabbuskorlik, o'z fani bo'yicha yangiliklardan xabardor bo'lishi va darslariga joriy eta olishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev. Prezidentimizning maktab ta'limi sohasiga doir fikrlari. <http://insonhuquqlari.uz/oz/news/presidential-views-on-schooling>.
2. Muslimov N.A., va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya. – “Fan va texnologiya” nashriyoti, T.: 2013- y
3. N.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Sayfurov, A.To'rayev - Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. Toshkent. “Sano-standart” 2015-y
4. Жумаева Г. Т. Современные технологии обучения учащихся //Евразийский научный журнал. – 2016. – №. 6. – с. 456-458.
5. Жумаева Г.Т. Основные тенденции развития педагогического мастерства учителя //Педагогическое образование и наука.–2019.–№. 5. – с. 9-11.
6. Tursunpolatovna J. G. Methods of Formation and Improvement on the Basis of an Innovative Approach to Improving the Pedagogical Skills of School Teachers //JournalNX. 2020 – p. 50-52. <https://scholarexpress.net/article/download>.
7. Tursunpolatovna J. G. Factors of Innovative Approach in Improving the Pedagogical Skills of School Teachers //International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology. 2020. – p. 52-54.